

Sahna asarlarida g'oyaviy qarashlarning yoritilishi va ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rnini

Teatr san'atining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rnini haqida Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning «Hammamizga yaxshi ma'lumki, inson va jamiyat hayotida, xalqning ma'naviy dunyosini, ongu tafakkurini yuksaltirishda teatr san'atining o'rnini va ahamiyati beqiyosdir. Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy aytganlaridek, teatr haqiqatan ham ibratxona, qutlug' tarbiya va ma'rifat maskanidir. Jahondagi eng ommaviy va ta'sirchan san'at turlaridan biri bo'lgan teatr asrlar davomida odamlarni insoniylik va ezgulikka chorlab, ularning qalbida olijanob fazilatlar, go'zal his-tuyg'ularni kamol toptirishga, jamiyat hayotida tinchlik, do'stlik va hamjihatlik, yuksak axloq va adolat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilib kelmoqda», deya ta'kidlab o'tganini alohida e'tirof etish joiz.



Har qanday soha boshqalaridan ajralgan holda yakka o'zi rivojlana olmaydi. Bugun O'zbekistonda milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish masalasiga mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivoltantirishning uzviy va ajralmas qismi sifatida qaralyapti. Negaki, madaniyat va san'at millat taraqqiyoti

yo'lidagi nihoyatda ahamiyatli va o'ta nozik sohadir. Chunki bu soha jamiyatning yuragiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladigan, tilagiga ko'chadigan tuyg'ularni tarbiyalaydi. Yurtboshimiz «Bugungi shiddatli zamon oldimizga qanday murakkab vazifalarni qo'yayotganini barchamiz ko'rib, bilib turibmiz. Ularni hal etish va ezgu maqsadlarimizga yetish, dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lish uchun xalqimizni, avalambor, yoshlarimizni ilm-fan, ma'rifat va ma'naviyat, taraqqiyot yutuqlari bilan qurollantirishimiz kerak.

Bugungi kunda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, oliygohlarimizni ta'lim va ilm-fanning yirik markazlariga aylantirish bo'yicha boshlagan katta ishlarimizni jadal davom ettirishimiz lozim», degandi. Har tomonlama rivojlangan, yetuk, bilimdon, jahon andozalari bilan bo'ylasha oladigan malakali kadrlarni yetkazib berish ta'limdagi bugungi islohotlarning asosini tashkil qiladi.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 28-maydagi «Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida teatrlarni rivojlantirish, jamoatchilikda teatr san'atiga bo'lgan qiziqishni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib, sohadagi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bularning ijrosini ta'minlash maqsadida bir qator samarali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, barcha teatr saytlari yangilanib, uch tilda yuritila boshlandi. Ijodiy jamoalar shakllantirildi. Yangi O'zbekistonda yangicha dunyoqarashga intilib yashash orqali biz madaniyat va san'at sohasi vakillari mushtarak madaniyatimiz va saodatli san'atimizni yaratish uchun harakat qilishimiz darkor. Zero, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyevning "Bir haqiqatni hech qachon unutmaylik: biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqimiz.

Biz – hech qachon mehnatdan qochmaydigan, qiyinchilikdan qo'rqmaydigan, adolatni qadrlaydigan, azmu shijoatli, buyuk xalqimiz. Barchamiz bir tanu bir jon bo'lib, yakdil va ahil

bo'lib harakat qilsak, halol-pok bolib, yaxshi niyat bilan mehnat qilsak, har qanday marralarni egallashga, boshqacha aytganda, tariximizning yangi sahifasini yaratishga qodir xalqmiz", deb aytgan da'vatlari barchamizning qalbimizga iftixor bag'ishlaydi.

Har bir ijodiy jamoa tasdiqlangan rejaga asosan yiliga 4 tadan, Respublika teatrlari bo'yicha jami 150-160 ga yaqin yangi spektakl sahnalashtiradi. Ijodiy jamoalar repertuarida turli yosh va qiziqishga ega tomoshabinlarga mo'ljallangan tragediya, drama, komediya janrlarida jahon hamda o'zbek mumtoz asarlari namunalari mavjud. Prezidentimiz ijodkorlarga katta ishonch bildirib, «Ijod ahli inson qalbining muhandislaridir», – deya ta'kidlagan. Teatr san'ati esa hech qachon eskirmaydi. Inson qanchalar axborot texnologiyalariga o'rganmasin, baribir ma'naviyat dargohi sifatida o'rnak bo'ladigan teatrning o'rni bo'lakcha.



O'zbekistonning madaniyati mangulikka daxldor, degan asosli jumlada biz madaniy qadriyatlar va madaniy meros obyektlarining ulug'vorligini, ajdodlarimiz tarixini eslatuvchi asosiy manba ekanligini tushunamiz. Ushbu qadriyatlarimiz va madaniy meros obyektlarimiz yoshlar tarbiyasini mukammal rivojlantirish, ular dunyoqarashini o'zgartirib, globallashuv zamonida tubanlikka tushib qolmasliklarida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimiz Prezidenti ilgari surgan keng ko'lamli demokratik islohotlar asosida yangi Uyg'onish davri – Uchinchi Renessans poydevorini shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish zaruriyati, yangi milliy mafkuraga aylanishi, xususan, madaniy

merosimizning xalqaro andozalarga mos ravishda saqlanishini ta'minlash, o'z kuchimiz va imkoniyatlarimizga bo'lgan ishonch bizni Yangi O'zbekistonni barpo etish va Yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratishdek ulug' maqsad yo'lida birlashtirmoqda. Bu borada millat timsollariga aylangan ziyolilarning – madaniyat va san'at sohasining fidoyilari alohida o'rin tutadilar. Eng muhimi, ziyolilar ongi va ruhidagi yaratuvchanlik salohiyatini jonlantirib, uni millat kamolotiga xizmat qildirishi darkor. Bu borada nimalar qilishimiz lozim, degan savolga shunday javob bo'ladiki, avvalo, sohani bilimdon mutaxassislar bilan to'ldirish kerak. Shu bilan birga, mavjud soha mutaxassislarini merosimizni xalqaro andozalarga mos ravishda saqlanishini ta'minlashga qayta tayyorlash, zamonaviy ilm-fan, texnika yutuqlari va xalqaro andozalarga mos ravishda ishlash, shuningdek, xalqaro tajribalarni o'rganib, sohaga tadbiq etish hozirgi paytdagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Bu boradagi islohotlarda madaniyat va san'at sohasi xodimlari eng oldingi safda bolishi kerak. To'g'rirog'i, birinchi galda bizning o'zimiz ana shu maqsad mohiyatini chuqur anglab olishimiz kerak. Fuqarolarimizda ham jamiyat rivojida, uyg'onish davrida mening ham hissam bo'lishi kerak, degan fikrni shakllantira olsak, rejalarimiz, intilishlarimiz yanada tez va yugori samara bera boshlaydi.

Bugungi voqeliklar shiddat bilan o'zgarayotgan davrda teatrlar ham faqatgina davlat beradigan moliyaviy ko'makka qarab tura olmasligini ko'rsatyapti. Ayniqsa, o'tgan davrlarda karantin va muayyan cheklovlar diyorimizdagi madaniyat va san'at muassasalari faoliyatiga jiddiy zarar yetkazgani barchamizga a'yon. Bugun teatrlar zimmasiga xalqimizning ma'naviy talabini qondirish barobarida, taqdim etilajak spektakllar evaziga daromad ko'rishdek mushkul vazifa yuklanadi. Binobarin, xalqimizning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi, urf-odatlarini, an'analari singari hech qaysi millatnikiga o'xshamagan go'zal qadriyatlarini borki, shular asosida o'lmas sahna asarlarini yaratib, elimizga havola etish eng asosiy vazifamizga kiradi. Darhaqiqat, yillar davomida shakllangan

boshqaruv va teatr asarlarini taqdim etish usullari endilikda o'zgarib bormoqda. Tarbiyaning asrlar davomida saqlanganligi va avloddan-avlodga o'tganligi tufayli bugungi yoshlar madaniy, ma'naviy qadriyatlar haqida katta tasavvurga ega. Hayot o'zining turli-tumanligi bilan bolani tarbiyalaydi. Hayot – bu moddiy sharoit, jamiyatning ijtimoiy tuzimi, san'at, madaniyat, shuningdek, o'quv maskanlari – maktab, diniy o'quv yurtlaridir. Ma'lumki, jamiyat turli davrda shu zamondagi moddiy va ma'naviy hayotga muvofiq tarzda rivojlanib boradi. Ammo insoniyat avloddan-avlodga o'tib kelayotgan xalq san'atini, urf-odatlarini, an'analarini, bebaho, takrorlanmas boylikni avaylab asradi. Tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash insoniyat sivilizatsiyasining rivojida birdan-bir sharti bo'ldi.

Axborot texnologiyalari, internet tizimining keyingi yillarda shiddatli o'zgarishi va rivolanishi aksariyat sohalarning faoliyatini butunlay qayta ko'rib chiqish, ish uslublarini o'zgartirishga majbur qildi. Bu o'rinda milliy xarakterimizni isloh qilish bevosita teatr san'atisiz rivojlanmaydi. Sahna asarlarida bugungi ulkan islohotlarning yoritilishi, g'oyaviy qarashlarning asar va tomosha mohiyatiga qorishtirilishi xalqimizning mavjud islohotlarga bo'lgan fikrini teranlashtirishiga turtki bo'lmasdan qolmaydi. Ijodning biron turida teatr va dramaturgiyadagidek inson tiplari – xarakter va kasb-hunarlarining xilma-xilligi ko'rinmaydi. Ularda ma'budlarning yerdagi vakillari, avliyolar, qirollar, tuban odamlar, jamiyatdagi barcha tabaqa vakillari o'z xarakteriga ega holda biron voqeada ishtirok etishi mumkin. Ular dramaturg yaratgan personajlar bolib, ijodkor rejasiga ko'ra shakllangan xayolot dunyosining mahsulidir.

Dramaturg o'zining quvonchi, ko'ngil yolqinlari, g'azabi, tashvishlari, orzu-umidlari va ulug'vor fikrlarini asardagi personajlar xarakteriga mos ravishda taqsimlaydi. Uni jalb qilgan g'oya personalari xakteri va harakatida namoyon bo'ladi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishga da'vat

qilib turadi. Dramaturgning puxta o'ylagan rejasi personalarni o'z janriga xos shakldagi badiiy yechim sari yetaklaydi.



Asar g'oyasi tomoshabinga aytmasa bolmaydigan zaruratga aylanadi. Bu zarurat evaziga xarakterlar kuchli ta'sir quratiga ega bo'ladi. Bugun sahnaviy xarakter yaratish va spektaklining badiiy yaxlitligi masalasi o'z tadqiqotchisini kutmoqda. Chunki aktyor yaratgan rolning xakteri obraz darajasiga ko'tarilmas ekan, spektaklining badiiy yaxlitligi to'g'risida tugal fikr bildirish mumkin emas. Aktyor dramaturg tomonidan asar g'oyasini ochish uchun personajga bergan xakterni badiiy obraz darajasiga olib chiqolmasa, yordamchi vositalar bo'lmish – dekoratsiya va jihozlar keraksizday, musiqa aktyor aybini yopuvchi vositaday yoki uzuq-yuluq joylarni yamab turgan yamoqday tuyiladi. Bunday «tomosha»dan keyin spektaklini «tahlil» qilib, ommaviy ko'rik uchun tavsiya qilgan mutaxassisga, ayniqsa, teatrshunosga tahsinlar aytishdan boshqa iloj qolmaydi.

Teatr san'ati asrlar davomida insonlarni tarbiyalovchi, ma'naviyatini shakllantiruvchi qudratli vosita hisoblanib kelgan. Shu sababli bo'lsa kerak, sahna san'ati mavqeini yanada oshirish, moddiy-texnik bazasini zamon talablari darajasida takomillashtirish, zamonaviy binolarini qurib foydalanishga topshirish, eng muhimi, yangi teatrlar tashkil etish borasida hukumatimiz tomonidan juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. So'nggi yillarda teatr san'atiga, ijodkorlarga e'tibor kuchaydi. Ijodkorlarni qo'llab-quvatlash maqsadida Respublika qo'g'irchoq teatrlar festivali, yosh

rejissyorlarning «Debyut» ko'rik festivali, turli ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlar o'tkazildi.

Pyesalar tanlovlari o'tkazilib, g'olib mualliflar taqdirlandi. Dramaturglarning bir necha yillik qalam haqidan qarzdorliklar bartaraf etilib, 41 nafar muallifga qalam haqi to'lab berildi. Yil davomida repertuar rejaga kiritilgan spektakllarning deyarli 95 foizi sahnalashtirildi. Ulug' namoyandalarning xotira kechalari, taniqli san'atkorlarimizning ijodiy kechalari va benefislari o'tkazildi. O'zbekiston Respublikasi butun dunyo bolalar va yoshlar teatrlari assotsiatsiyasiga a'zo bo'ldi.

Shuni ta'kidlash joizki, zamonaviy o'zbek teatri rejissurasi xorijiy mumtoz asarlarni sahnada talqin etishda o'zbek teatridagi mavjud an'analarga suyanish hamda ularni jahon teatri an'analari va erishgan yutuqlari bilan uyg'unlashtirish yo'lidan bordi. Dunyo teatri taraqqiyotining turli davrlarida yuzaga kelgan asarlarni sahnalashtirish uchun rejissyorlar o'sha davr sahna san'atining o'ziga xos xususiyatlarini zamonaviy teatr bilan mutanosib holda ifodalashga intildi. O'z zamonidagi turli ijtimoiy-siyosiy muammolarni o'zida aks ettirgan asarlarni bugungi kunga moslashda sahna ijodkorlari, ularning umuminsoniy jihatlari, ma'naviy va axloqiy qarashlari, shuningdek, hozirgi jamiyada mavjud turli illatlarga qarshi kurashga chaqiruvchi g'oyalari urg'u berishni maqsad deb bildi. Bu esa asarlarning birmuncha zamonaviy xususiyat kasb etishiga sabab bo'ldi.

Shohro'za Ergasheva,

**Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish
yo'nalishi talabasi**

Taassurot

“Metallurg” madaniyat saroyida OKMK rahbariyati tashabbusi bilan O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning “Qora quyosh” nomli asari asosida O‘zbekiston madaniyat va san’at instituti ijodkorlari tomonidan sahnalashtirilgan spektakl namoyishi bo‘lib o‘tdi.

Zal ishchi-xodimlar, kombinat va shahrimiz yoshlari, talabalar bilan to‘ldi.

Tarixning achchiq haqiqatlari, millatparvar ziyolilarimiz, buyuklarimizning ayanchli qismati, dahshatli qatag‘on yillari zo‘r mahorat bilan tasvirlangan sahna sarini ko‘zda yosh bilan tomosha qildik. Barchamiz ta’sirlandik.

Bugungi yorug‘ va tinch kunlarimiz uchun shukr qildik. Qurbon bo‘lganlar, qurbon berganlar oldida, bolam deb bo‘zlagan onalar, otam qani deb izlagan bolalar, jigarini yo‘liga ko‘z tikkan opa-singillar, yorini qaytishiga umid qilib, dunyodan o‘tgan beva buvijonga aylanganlar oldida O‘zimizni qarzdor his qildik.

Tarixda mustabidchilik tuzumining qirg‘inbarot azoblarini, taraqqiyotdan bizni uzib, manqurtga aylantirmoqchi bo‘lganlar haqida har birimiz oilamizga, farzandlarimizga yetkazishimiz, asl tarixni o‘rgatib borishimiz,

Milliy g‘urur va erkni, Vatan tinchligi va ozodlikni himoya qilish, qadrlashga ruhan tayyor qilib tarbiyalashimiz shart.

So‘zda emas, amalda sadoqat va Vatanni sevish kerak.

Har qanday millatimizga qarshi fitna, propagandadan, Axborot xurujidan, ijtimoiy tarmoqdagi anonim terrordan o‘zingizni,

farzandlaringizni himoya qiling.

Sahnadagi o'q ovozidan zalda bolalar yig'lashdi.

Hayotdagi o'q ovozidan halok bo'layotgan bolalar ko'z o'ngimga keldi.

7 yoshli farzandlarim sahnadagi ijodkorlar tomonidan namoyish etilgan Sibirida azob tortayotgan Usmon Nosir, qo'lyozmasi olovga irg'itilganda faryodi olamni tutgan Qodiriylarni ko'rib ko'zda yosh bilan ular hozir ham qiynalyaptimi, rostdan o'lib qoldimi, deb so'rashdi.

Ular o'lmaydi, ular barhayot dedim...

Tarix unutilmaydi. Tarix – ulug' saboq.

Tarixdan saboq oling, endi hech qachon o'zimizni, o'z taraqqiyotimizni, o'z yo'limizni, o'z g'ururimizni hech qachon boy bermaymiz!

Buning uchun ma'naviy-ruhiy tarbiyani har narsadan ustun qo'yaylik, zero moddiy zararni qoplash imkoni bordir, ma'naviy zarar o'rnini qoplash judayam qimmatga tushadi.

Kamola Umaraliyeva



**O'zDSMi va Tyanjin aloqa
instituti o'rtasida talaba
almashinuvi bo'yicha**

shartnoma imzolandi

Shu kunlarda Xitoy poytaxti Pekin shahrida O'zbekiston-Xitoy ta'lim forumi bo'lib o'tmoqda.

Ushbu forumda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov hamda ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Sobir Jumayev ishtirok etmoqda.

Bugun forum doirasida Tyanjin aloqa instituti rahbariyati bilan ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'yicha uchrashuv bo'lib o'tdi. Tomonlar notiqlik san'ati, art-menejment va IT sohasida professor-o'qituvchilar va talaba almashinuvini ko'zda tutuvchi ikki tomonlama shartnoma imzolashdi.





0‘zDSMI va Tyanjin konservatoriyasi o‘rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi

Xabaringiz bor, shu kunlarda 0‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rahbariyati ta‘lim forumi doirasida Xitoy Xalq Respublikasida bo‘lib turibdi.




Bugun oliygoh rahbariyati Tyanjin konservatoriyasi bilan hamkorlik shartnomasi imzoladi.

Uchrashuv davomida ikki oliygoh o‘rtasida kelgusida talabalar almashinuvi hamda professor-o‘qituvchilar o‘rtasida malaka oshirish darslarini yo‘l qo‘yish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Ma‘lumot uchun, 1958-yil tashkil etilgan Tyanjin konservatoriyasining kunduzgi bo‘limida bugungi kunda 3000

nafardan ortiq talaba tahsil oladi.

Mazkur ta'lim muassasasi Buyuk Britaniyaning York universiteti, AQSHning Morhed va Missouri universitetlari hamda dunyoning boshqa yirik oliygohlari bilan hamkorlik qiladi.



Xitoyning ikki oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlik borasida kelishuvga erishildi


Xabaringiz bor, shu kunlarda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyati ta'lim forumi doirasida Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib turibdi.


Kunning birinchi yarmida Hebey aloqa instituti bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgani haqida ma'lumot bergandik.

Shuningdek, bugun Jilin xalqaro tadqiqotlar universiteti hamda Xitoy rassomchilik akademiyasi bilan hamkorlik borasida kelishuvga erishildi.

Ma'lumot uchun, Jilin xalqaro tadqiqotlar universiteti xorijiy tillarni o'rgatishga ixtisoslashgan ta'lim muassasasi hisoblanib, mamlakatning eng ilg'or xususiy oliygohlariga qatoridan o'rin egallagan.

Shu bilan birga, Xitoy rassomchilik akademiyasi ham mintaqada san'atga ixtisoslashgan nufuzli dargoh hisoblanadi.





0‘zDSMI rahbariyati Xitoyda o‘tkazilayotgan ta‘lim forumida ishtirok etmoqda

Xabaringiz bor, Xitoy Xalq Respublikasida 22–23-yanvar kunlari O‘zbekiston–Xitoy ta‘lim forumi o‘tkaziladi.

Xitoy poytaxti Pekin shahrida o‘tkazilayotgan forumda O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov hamda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Sobir Jumayev ishtirok etmoqda.

Forumda O‘zbekiston-Xitoy universitetlari o‘rtasida oliy

ta'lim va ilm-fan yo'nalishidagi aloqalarni jadallashtirish, o'zbekistonlik talabalarning xitoy tilini chuqurroq o'rganishlari uchun imkoniyatlarni kengaytirish, ta'limda sun'iy intellektni joriy etish, muhandislik, qishloq xo'jaligi, energetika, raqamlashtirish, kimyo sanoati yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash, malaka oshirish, stajirovka o'tash, spin-off korxonalarini tashkil etish, texnologiyalar transferini amalga oshirish, Xitoy texnologik parklari bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilinadi.

Forum yakunida kadrlar tayyorlash, malaka oshirish, rivojlangan texnologik ishlab chiqarish sohalarining tajribasini O'zbekiston oliygohlariga tatbiq etishga qaratilgan qator hamkorlik shartnomasi imzolanishi kutilmoqda.





Tayanch doktorant va mustaqil tadqiqotchilar uchun ilmiy seminar o'tkazildi


Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tayanch doktorant va mustaqil tadqiqotchilar uchun ilmiy seminar o'tkazildi.

Dastlab oliygoh rektori v.b. Eldor Shermanov so'zga chiqib, ilmiy ishlarning soha rivoji va jamiyat hayotidagi o'rni to'g'risida fikr yuritar ekan, son bilan cheklanib qolmasdan, sifatga ham e'tibor qaratish lozimligini ta'kidladi.

Toshkent davlat pedagogika universiteti umumiy pedagogika kafedراسi mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor Begzod Xodjayev tomonidan o'tkazilgan seminar davomida ilmiy darajalar berish nizomi, metodologik ahamiyatga molik nashrlar, soha bo'yicha Respublika va xorijlik olimlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlar va boshqa masalalar to'g'risida atroflicha ma'lumot berildi.

Seminar so'ngida ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Oybek Davlatov Begzod Xodjayevga minnatdorchilik bildirdi hamda tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarga ilmiy-ijodiy faoliyatida muvaffaqiyat tiladi.





Folklor sohasiga oid elektron platforma yaratiladi

Bugun O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori v.b. Eldor Shermanov folklor va etnografiya ta'lim yo'nalishi talabalarining yakuniy nazorat imtihon jarayoni bilan tanishdi.

Tashrif davomida rektor mazkur sohaning jamiyatdagi o'rni to'g'risida to'xtalib, talabalarning yutuq va kamchiliklari borasida o'z fikrini bildirdi.

«Yakuniy imtihonlar shaffof va adolatli ruhda o'tishi kerak. Oliygo'ha o'qishga kirgan talaba mazkur dargohdan mutaxassis bo'lib yetishishi darkor. Bu yo'lda ularga ta'lim berayotgan o'qituvchilar ham javobgar sanaladi.

Folklor va etnografiya jamiyatda juda katta ahamiyatga ega sanaladi. Boshqa sohalarda inqiroz yuz bersa, uni oldini olish mumkin, biroq milliy qadriyatlarini yo'qolgan mamlakat oxir-oqibat tanazzulga uchraydi. Shu bois, bu sohada tahsil olayotgan talabalarga alohida e'tibor qaratish joiz.

Shu bilan birga, ular o'rganayotgan bilimlar va ularning ijodiy ishlari shu yerda qolib ketmasligi kerak. Kelgusida mazkur sohaga oid elektron platforma yaratib, professor-o'qituvchilar va talabalarning ijodiy ishlarini nafaqat Respublika, balki dunyoga targ'ib qilishni rejalashtirganmiz.

Zamon o'zgargan sayin yoshlarda ham zamonaviylik kayfiyati paydo bo'lishi sir emas. Shunday ekan, nega folklor namunalarini zamon bilan hamnafas ko'rinishga keltira olmaymiz? Buning uchun bizda barcha shart-sharoitlar

mujassam», – *dedi Eldor Shermanov*.

Yakuniy nazorat imtihonlari davom etmoqda.

